



ANALYSIS OF ARTICLES WITH THE COMPONENT "SALT" IN PERSIAN AND UZBEK LANGUAGES"

Pokiza Maxmudova

*3rd-year student of the Persian-English group
Tashkent State University of Oriental Studies
E-mail: mahmudovapokiza9@gmail.com*

D. Ahmedova

*Doctor of Philology, Associate Professor
Faculty of "Iranian and Afghan Studies"
Tashkent State University of Oriental Studies
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Proverb, proverb topics, proverbs with the "salt" component, equivalent, semantic analysis.

Received: 28.04.25

Accepted: 10.05.25

Published: 14.05.25

Abstract: This article discusses the role of salt in Persian and Uzbek proverbs. It also provides information about common proverbs involving salt in both Persian and Uzbek languages, along with their semantic analysis.

FORS VA O'ZBEK TILLARIDA "TUZ" KOMPONENTLI MAQOLLAR TAHLILI

Pokiza Maxmudova

*GHTF mutaxassisligi, 3-kurs fors-ingliz guruhi talabasi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
E-mail: mahmudovapokiza9@gmail.com*

D. Ahmedova

*filologiya fanlari doktori
“Eronshunoslik va afg'onshunoslik” oliy maktabi dotsenti
TDSHU
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Maqol, maqol mavzulari, “tuz” komponentli maqollar, ekvivalent, semantik tahlil.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Eron va O‘zbek maqollarida tuzning o‘rnini haqida so‘z ketadi. Shuningdek, fors va o‘zbek tillaridagi aynan tuz ishtirok etgan mushtarak maqollar va ularning semantik tahlili borasida ma’lumotlar beriladi.

АНАЛИЗ СТАТЕЙ С КОМПОНЕНТОМ «СОЛЬ» НА ПЕРСИДСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Покиза Макмудова

студентка 3-го курса персидско-английской группы
Ташкентский государственный университет востоковедения
E-mail: mahmudovapokiza9@gmail.com

Д. Ахмедова

доктор филологических наук, доцент кафедры
“Ирановедения и афгановедения”
Ташкентского государственного университета востоковедения
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Пословица, темы пословиц, пословицы с компонентом “соль”, эквивалент, семантический анализ.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль соли в персидских и узбекских пословицах. Также представлена информация о общих пословицах с участием соли в персидском и узбекском языках, а также их семантический анализ.

Kirish. Maqol — xalq og‘zaki ijodi janri, qisqa va lo‘nda, obrazli va obrasziz, grammatish va mantiqiy tugallangan ma’noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli, muayyan aniq shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan.

“Tilning asl qaymog‘i, uning o‘ziga xos xususiyatlari va tabiatini belgilaydigan, uning kamolot darajasi qanday ekanligini ko‘rsatadigan boshqa tillar o‘rtasida tutgan o‘rnini tayinlashda muhim omil bo‘lgan narsa — undagi maqol, matal, idioma va boshqa shu kabi ko‘chma ma’noli birikmalardir”. Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va hilma-xil. Vatan, mehnat, ilm-hunar, do‘stlik, ahillik, donolik, hushyorlik, til va nutq madaniyati, sevgi va muhabbat kabi mavzularda, shuningdek, salbiy hislatlar xususida rangbarang maqollar yaratilgan. Maqol uchun mazmun va shaklning dialektik birligi, ko‘p hollarda qofiyadoshlik, ba’zan ko‘p ma’nolilik, majoziy ma’nolarga boylik kabi xususiyatlar mosdir.

Turkiy xalqlarning maqollaridan namunalar dastlab Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida keltirilgan. Bu maqollarning bir qanchasi hozir ham o‘zbek xalqi orasida turli variantlarda ishlataladi.

Maqollar ba’zan matal, zarbulmasal, naql, hikmat, hikmatli so‘z, tanbeh, mashoyixlar so‘zi, hikmatli maqol, donishmandlar so‘zi, otalar so‘zi kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Maqollarning ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy ahamiyati juda katta. Matalda narsa tasviri, uning harakteristikasi beriladi, maqolda esa to‘la tugallangan fikr-xulosa ifodalanadi .

Asosiy qism

O‘zbekistonda xalq maqollarini to‘plash va o‘rganish bo‘yicha bir qator olimlar va tadqiqotchilar muhim ishlar olib borgan.

1. G‘ozi Olim Yunusov 1922-yilda o‘zbek xalq maqollarini to‘plab, nashr qilgan.
2. Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li – Xorazmda 560 ta maqolni to‘plab, 1923-yilda “O‘zbekcha otalar so‘zi” nomi bilan nashr etgan.
3. Sherali Ro‘zi – 1926-yilda “O‘zbek maqollari” nomli to‘plamini chop etgan.
4. Mansur Afzalov – O‘zbek xalq maqollarini to‘plash va o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan.
5. N. G. Ostroumov – O‘zbek xalq maqollarini to‘plash va nashr qilishda xizmat qilgan missioner.

Shuningdek, 1980-yillarning oxirida O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti xodimlari tomonidan 13 mingga yaqin maqollar alifbo bo‘yicha tartiblashtirilib, nashr etilgan.

Eron adabiyotida ham maqollarni to‘plash va o‘rganish bo‘yicha olimlar va tadqiqotchilar o‘zlarining bir qancha ishlarini olib borishgan.

1. Ali-Akbar Dehxudo (1879–1956) – Eronning mashhur tilshunosi va adabiyotshunosi bo‘lib, u “Lo‘gatnama” (lug‘atlar to‘plami) asarini yaratgan. Ushbu asarda ko‘plab maqollar va ularning izohlari keltirilgan.
2. Sodiq Hidayat (1903–1951) – Eronning taniqli yozuvchisi va tadqiqotchisi bo‘lib, u xalq og‘zaki ijodini, jumladan, maqollarni to‘plash va tahlil qilish bilan shug‘ullangan.
3. Jaloliddin Humoyunfarrox (1908–1984) – Eron adabiyotshunosi va folklorshunos bo‘lib, u xalq maqollari va matallarini to‘plab, ularni tahlil qilgan.
4. Ahmad Bahmanyor (1893–1955) – Eronning mashhur adabiyotshunosi va tilshunosi bo‘lib, u fors tilidagi maqollar va ularning kelib chiqishi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan.
5. Muhammad Ali Furugi (1877–1942) – Eronning taniqli adabiyotshunosi va faylasufi bo‘lib, u fors tilidagi maqollarni to‘plash va tahlil qilish bilan shug‘ullangan.

Yuqorida aytib o‘tilganidek maqollar turli mavzularda, mamlakatning madaniyat va urfatlariga asoslangan holda turlicha bo‘ladi. Quyida biz shu doirada aynan Eron va O‘zbekiston tilshunosligida "tuz" qatnashgan maqollarga to’xtalib o‘tdik.

Tuz O‘zbekiston va Eron madaniyatida qadimdan muqaddas sanalib, mehmono‘stlik, sadoqat, qasam va do‘stlik timsoli sifatida qaralgan. U nafaqat taomlarning ajralmas qismi, balki insonlar o‘rtasidagi hurmat va e’tibor belgisi hamdir. O‘zbek va Eron xalqlari mehmon kutishda alohida e’tibor berib, dasturxonga non va tuz qo‘yishni hurmat ifodasi deb biliшган. Mehmon tuz totishi unga ehtirom ko‘rsatish, uni e’zozlash ramzi sanalgan. Shuningdek, “non va tuz haqqi” (O‘zbekistonda) va “namak xurdan” (Eronda) iboralari sadoqat va minnatdorlik timsoli sifatida keng qo‘llanib, bir joyda tuz totgan odamga xiyonat qilish yaramasligi ta’kidlangan.

Tuz qasam va ahdning mustahkamligini ifodalovchi unsur sifatida ham qadrlangan. O‘zbek va Eron xalqlari kelishuv yoki nizolarni hal qilishda tuz iste’mol qilib, o‘zaro va’dalarining buzilmasligini tasdiqlashgan. “Tuzga qasam ichish” eng mustahkam qasam hisoblangan.

Bundan tashqari, tuz yomonlik va yovuz kuchlardan himoya vositasi sifatida ishlatalgan. Ba’zi hududlarda yangi tug‘ilgan chaqaloqning beshigiga, yangi uyga yoki muhim marosimlarda tuz sepish odati mayjud bo‘lib, u ofatlardan asrash ramzi deb qaralgan. Shuningdek, Eronda nikoh marosimlarida kelin-kuyovga tuz berish halollik va baraka ramzi sifatida e’tirof etiladi. Ko‘rinib turibdiki tuz har ikkala mamlakat madaniyatida muhim rol o‘ynaydi.

Har ikki xalqning og‘zaki ijodida tuz markaziy mavzulardan biri hisoblanadi.

1. Bir kun tuz ichgan joyga qirq kun salom ber.
2. Tuzini yeb, tuzlig‘iga tupurma.
3. Yomonga qiz tugul, tuz ham berma.
4. Ovqatni tuz mazali qilar, odamni — so‘z.
5. Tuz asrama, suv bo‘lar; qiz asrama, quv bo‘lar.
6. Qiz puli — tuz puli.
7. Qiz saqlaguncha, bir siqim tuz saqla.
8. Ot tuz deydi, yigit — qiz.
9. Tuya tuzni sevar, yigit — qizni.
10. Taom tuz bilan, tuz o‘lchov bilan.

اول بچش بعد بگو كه بي نمک است.
1.

(avval bečeš ba’d begu ke bi namak ast.)

Avval tatib ko‘r , so‘ng tuzsiz ekan degin.

انجا كه نمک خوردى نمکدان مسكن.
2.

(onjo ke namak xordi namakdän maşekan)

Tuz yegan yeringda tuzdonni sindirma.

دستش نمک ندارد.^۳

(dastaš namak nadärad)

Yaxshilik qilib aksini olasan.

آشپز که دو تا شد غذا یا شور میشه یا بی نمک.^۴

(äšpaz ke do tä šod g‘azä yä šur miše yä bi namak)

Oshpaz ikkita bo‘lsa ovqat yo sho‘r yoki tuzsiz bo‘ladi.

به زخم کسی نمک پاشیدن.^۵

(be zaxme kasi namak päšidan)

Kimdirning yarasiga tuz sepish.

هر چه بگند نمکش میزند وای از آن روز که بگند نمک.^۶

(xar če begandid namakaš mizaranad, vay az än ruz ke begandid namak)

Har narsa buzilsa tuz sepishadi, lekin tuz o‘zi buzilsa qanday bo‘ladi.

نه به آن شوری شور نه به این بی نمکی.^۷

(na be än šuri šur na be in binamaki)

Na tuzli, na tuzsiz.

(Ushbu ibora biror narsaning juda haddan tashqari bo‘lmasligi kerakligini, balki muvozanatda bo‘lishi lozimligini anglatadi, xuddi ovqatda ham tuzning ortiqcha yoki kam bo‘lishi kerak emas .

جایی که نمک هست، طعم هست، جایی که نمک نیست، غم هست.^۸

(joyi ke namak xast ta’m xast joyi ke namak nist g‘am xast)

Tuz bor joyda ta’m bor, tuz yo‘q joyda g‘am bor.

(Hayotda qadriyatlar va minnatdorlik bo‘lmasa, inson baxtsiz bo‘ladi)

کسی که نمک را می‌ریزد، روزی خود را می‌ریزد.^۹

(kasi ke namak rä mirizad , räziye xud rä mirizad)

Tuzni to‘kkan odam rizqini to‘kadi.

(Beparvolik va noshukurlik qashshoqlikka olib keladi.)

غذا بی نمک بی مزه است، انسان بی احترام بی ارزش است.^{۱۰}

(g‘azä bi namak bi maze ast, ensän bi ehteräm bi arzeš ast.)

Tuzsiz taom bemaza, humatsiz odam – andaza.

(Tuz ovqatga mazasi bo‘lgani kabi, hurmat ham inson uchun muhimdir.)

انخا که نمک او‘zbek tilidagi "Bir kun tuz ichgan joyga qirq kun salom ber" maqoli fors tilidagi خورдی نمکдан مسکن maqoliga semantik mos tushadi. Bu yerda tuz ichgan joy deganda ikkala tilda ham bir makonda qo’nim topib, o‘sha yerda moddiy, yeb ichishi ta’milanishi tushiniladi.

O‘zbek tilidagi yaraga tuz sepish fors tilidagi به زخم کسی نمک پاشیدن maqoliga ekvivalent bo‘la oladi. Bu yerda tuz o‘z ma’nosida kelib, maqol kimningdir dardiga hamdard bo‘lmay aksincha uni muammosini kuchaytirishni bildirib kelmoqda ya’ni tashvishi dardini battarlashtirish.

Fors tilidagi maqolida tuz semantik jihatdan o‘z ma’nosida kelmayabdi. Ushbu maqol so‘zma-so‘z tarjima qilinganda "uning qo‘lida tuz yo‘q" degan ma’noni anglatadi. Bu maqol minnatdorchilik bilmaydigan, qadr bilmaydigan yoki qilgan yaxshiligungizni unutadigan odam haqida aytildi. Fors tilida "tuz" minnatdorlik va qadrondonlik ramzi bo‘lgani uchun, "qo‘lida tuz yo‘q" degan ibora yaxshilikni unutish yoki xurmatsizlik qilish ma’nosida ishlataladi.

Tuz -nasib bilmaydi. Ushbu O‘zbek maqoli yuqoridagi maqolga semantik jihatdan eng yaqin ekvivalentdir. Ya’ni qilgan yaxshiligungni bilmaydi.

نمک خوردن و نمکдан شکستن Tuzini yeb tuzlig‘iga tupurish. Fors va o‘zbek tillaridagi bu maqollar bir biriga semantik jihatdan ekvivalentdir. Ikkala maqolda ham ma’no kimningdir yaxshiligidan foydalanim, unga zarar yetkazish yoki noshukurlik qilishni beryabdi.

Xulosa

Lev Tolstoy aytganidek "Maqol - bir daqiqalik hayot tajribasining mevasi". Darhaqiqat, maqol avlodlar donishmandligining mujassami bo‘lib, unda hayot haqiqatlari jamlangan. "Maqol va matallar xalq aql-idrokining mahsuli, uning hukmi, ko‘p asrlik tajribalari, turmushdagi turli mulkidirogealarga munosabati demakdir... Maqol yaratmagan biron til, maqol ishlatmagan biron ta xalq yo‘q". Har biri tilimiz ko‘rkini, nutqimiz nafosatini, aql-farosat va tafakkurimiz mantiqini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish etgan va eta oladigan bunday badiiyat qatrалari xalqimizning ko‘p asrlik hayotiy tajribalari va bir-maishiy turmush tarzining bamisolari bir oynasidir. Shuning uchun ham maqollar g‘oyatda keng tarqalgan bo‘lib, asrlar davomida jonli so‘zlashuv va o‘zaro nutqiy munosabatlarda, badiiy va ilmiy asarlarda, siyosiy va publisistik adabiyotda doimiy ravishda qo’llanilgan va bugungi kunda ham qo’llanilib kelinmoqda. O‘zbek va Eron madaniyati va urfodatlarida tuzning o‘rni qanday muhim ekanligini bafurja yuqorida ko‘rib o‘tdik. O‘zbek tilida tuz qatnashgan maqollar o‘zbek maqollarining 1% ni tashkil qilisa, fors tilida 2%ni tashkil etadi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Maqollar.uz — O‘zbek xalq maqollari 3 tilda: o‘zbek, rus va ingliz.
2. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh., Ma’nolar maxzani, T., 2001
3. G’. Salomov "Rus tilidan o‘zbek tiliga maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalasiga doir" asari.